

MAKTABGACHA YOSHIDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Musaeva Dilfuza Abduraxmonovna

*Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Bolalar nutqiy rivojlanishidagi har qanday buzilish, hoh u fonetik- fonematik yoki nutqning to‘liq rivojlanmaganligi, shuningdek, duduqlanish bo‘lsin, u mutaxassislar tomonidan birinchi navbatda muloqotning buzilishi sifatida qaraladi. Bunda nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklar bolaning barcha psixologik xususiyatlarini shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Aynan teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalarni o‘z nuqsonlariga e‘tibor qaratishlaridan ozod bo‘lishga yordam beradi, ularni umumiy va nutqiy motorikalarini rivojlantirish uchun, nutqni korreksiyalash, psixoterapiyani faol vositasi sifatida qo‘llash mumkin. Bundan tashqari, dudqulanuvchi bolalarning mimikalari kambag‘al, ifodasiz, harakatlari koordinatsiyalari buzilgan bo‘ladi, ritmni his qila olmaydi.

Tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlikdagi teatrlashtirilgan faoliyati muloqot doirasini korreksiyalash uchun sharoit yaratadi. Teatrlashtirilgan o‘yin bolani o‘ziga nisbatan munosabatini, o‘zini tutishini, tengdoshlari, kattalar bilan muloqot qilish usullarini o‘zgartiradi. Teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatida bilish jarayonlari, hissiy – emotsional doirasi javdal rivojlanadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarning korreksion rivojlantiruvchi imkoniyatlari oldindan ma‘lum edi. Shuningdek, A.N.Grabarov ham drammatizatsiya bolalarning faolligini ta‘minlab, ularning diqqatini oshiradi, o‘quv materialini ongli o‘zlashtirishlarini ta‘minlaydi, deb ta‘kidlaydi. V.I. Seliverstov va A.G. Volkovalarning tadqiqot natijalariga ko‘ra, drammatizatsiyali o‘yinlar (yoki o‘yin- tomoshalar) nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan o‘ziga xos va qiziq bo‘ladi. Unda bolalar sevimli ertaklari mazmunini , tanish qahramonlar hatti – harakatlarini aks ettiradi, katta qiziqish bilan ertakdagi shaxslarni, ularning o‘ziga xos harakatlarini tasvirlaydi, dialoglar olib boradi. Agar oldindan o‘yinga mos dekoratsiyalar, niqoblar yoki hech bo‘lmaganda ularning detallarini tayyorlanishi o‘yinga o‘ziga xos yorqin hissiy bo‘yoqdorlikni bera oladi. Dramatizatsiyali o‘yinlar bolalar teatridagi qo‘g‘irchoqlar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bunday o‘yinlar bolalarning kitobga, uning ijodiy qobiliyatiga qiziqishini uyg‘otadi, nutqi va harakatlarini rivojlantiradi. Dramatizatsiyalashtirilgan o‘yinlar materiali sifatida quyidagi ertaklar xizmat qilishi mumkin: rus xalq ertaklari “ Uycha”, “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq”, o‘zbek xalq ertaklari “Zumrad va qimmat”, “ Egri va to‘g‘ri”, “ Oltin tarvuz”, “Ur to‘qmoq” kabi ertaklari va turli xil chet el ertaklari xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni samarali ijtimoiylashish va unda nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Bunda teatrlashtirilgan faoliyat bevosita biror bir qahramon shaxsi vositasida ko‘pgina muammolarni hal etish imkonini beradi, bu ma‘lum toifa bolalarni qo‘rqoqligi, o‘ziga ishonchini yo‘qligini va uyatchanligini tabbiy ravishda bartaraf etishga yordam beradi. Teatrlashtirilgan faoliyatni

o‘zlashtirish dinamikasi birinchi teatrlashtirilgan o‘yinlarni tarbiyachining o‘zi o‘tkazib, unga bolalarni jalb qilishini ko‘zda tutadi. Keyinchalik mashg‘ulotlarda qichik mashqlar va o‘yinlardan foydalanilib, unda pedagog o‘yinda hamkorlik qiladi, bolaga uni tashkil etishda tashabbus ko‘rsatishni taklif etadi, faqatgina katta guruhlarda ba‘zan pedagog o‘yinda ishtirok etishi va va bolalarda syujet va uni ijrosini tanlashda mustaqillikni uyg‘otishi mumkin.

Teatrlashtirilgan o‘yin duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda har qanday mashg‘ulotning yoki rejimli vaziyatlarning bir qismiga aylanishi kerak. Ular tizimli ravishda o‘tkazilishi, bunda nutqiy materialni bolalarning imkoniyatiga mos ravishda tanlash va taqsimlash kerak. Teatrning turli xil shakllari orqali bolalarning umumiy va mayda motrikasini rivojlantirish lozim, duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashning birinchi bosqichida teatrlashtirilgan o‘yinlarni “ pedagog - bolalar”, keyingi bosqichlarida esa, “ bolalar- pedagog” tizimi bo‘yicha tashkil etish kerak. Bundan tashqari, teatrlashtirilgan o‘yinlarda nutq va nutqiy kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan nutqiy vaziyatlarni ishlab chiqish kerak. Teatrlashtirilgan o‘yinlarni maqsadli va nutqdan qo‘rqishni bartaraf etish vositasi sifatida qo‘llash lozim. Teatrlashtirilgan o‘yinlarning o‘ziga xosligi shundaki, vaqt o‘tishi bilan bolalar kattalar tomonidan tartibga solingan o‘z o‘yinlaridan qoniqmay qolishadi, ularni adabiy asarlar asosida tashkil etilgan o‘yinlar jalb qila boshlaydi (qahramonlik, mehnat, tarixiy mavzulardagi). Bolalar bilan ishni tashkil etishda turli xil teatrlashtirilgan faoliyat turlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar o‘zgaruvchan bo‘lib, unda drammatizatsiya elementlari ishtirok etadi, ammo, bu yerda matn teatrlashtirilgan o‘yinga qaraganda erkin qo‘llaniladi, bolalarni ko‘proq ijro qilinayotgan rolning ifodaliligidan ko‘ra, syujetning o‘zi, uning haqqoniyligi jalb etadi. Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinli faoliyati o‘zaro uzviy bog‘langan ikkita aspektlarda qaraladi: bolaning mustaqil tajribasiga tayanuvchi turli xil badiiy faoliyat, ijodiy syujetli o‘yinlar.

Teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etish tamoyillari (O.Akulova):

- o‘yin (erkin, ixtiyoriy) va badiiy (tayyorlangan, boshidan kechirgan) badiiy komponentlarni birlashtiruvchi ushbu faoliyatning o‘ziga xosligi;

- turli xil san‘at turlari va bolaning turli badiiy faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘zda tutuvchi komplekslilik;

-improvizatsiyaliligi teatrlashtirilgan o‘yinda ijodiy faoliyat sifatida qaraladi, u kattalar va bolalarning o‘zaro faoliyatini ta‘minlaydi, bolalar o‘zaro erkin muhitda, bolalar tashabbuskorligi ortadi, taqlid qilish uchun namuna bo‘lmaydi, hamma narsa o‘z nuqtai nazariga ko‘ra, haqiqiylikka intilish asosida bo‘ladi;

- teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatini maqsadli rivojlantirishga mos integrativligi (ko‘p tarmoqliligi), o‘z ichiga bir butun pedagogik jarayonni qamrab olib, u teatrlashtirish bo‘yicha ishlarni badiiy faoliyat bosqichlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko‘zda tutadi.

Birinchi bosqich. Bilish faoliyatlari, emotsional tajribalarini boyitish va asar g‘oyalarini mashg‘ulotlarda bolalarning bilish jarayonlari, nutqi, musiqiy idorokini rivojlantirish maqsadida badiiy asar mazmuniga mos ravishda rivojlantirish uchun badiiy

matnni chuqurroq idrok etish. Mashg‘ulotdan tashqaridagi tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi hamkorlikdagi faoliyatda matn bilan tanishish, uni chuqur idrok etishlari bo‘yicha ishlar olib boriladi (suhbatlar, kitobdagi rasmlarni kuzatish, audio yozuvlarni eshitish va tahlil qilish, didaktik o‘yinlar, leksik mashqlar, viktorinalar va hakoza). Predmetli-rivojlantiruvchi muhit kitob bilan muloqot qilishga qiziqish uyg‘otadi.

Ikkinchi bosqich. Obrazlarni noverbal, intonatsiya va til ifodaliligi vositalari yordamida bera olish malakasini rivojlantirish. Asosiy metod sifatida obrazli o‘yinli etyudlar yuzaga chiqadi. Bolalar tomonidan badiiy asar qahramonlarini, ularning hatti harakatlarini, holati va kayfiyatlarini yaxshi tushunishi mashg‘ulotning barcha turlariga mos keladi, matnlar bilan harakatli o‘yinlar, leksik mashqlar, turli xil ko‘rgazmalarni tomosha qilish va xakozo. Predmetli rivojlantiruvchi muhit bolalarni matn asosida mustaqil o‘yin va badiiy faoliyatini ta‘minlaydi.

Uchinchi bosqich. Bolani nutqiy, o‘yin va boshqa turdagi adabiy faoliyatidagi ijodi “tomoshabin”, “artist”, “ssenarist-rejisser”, tashkilotchi-kostyumer sifatidagi o‘yinli pozitsiyalarni tasviriy san‘at (jamo bo‘lib, afishalar, taklifnomalar tayyorlashida) bo‘yicha mashg‘ulotlarda, tarbiyachilar va bolalarning birgalikdagi faoliyatida o‘zlashtiriladi. Katta guruhda nutqiy ijodni rivojlantirish uchun maqsadli chuqurlashtirilgan ishlar olib boriladi. Mustaqil o‘yin va nutqiy faoliyat ijodida predmetli muhitga tayaniladi. Shunday tashkil qilingan ishlarda teatrlashtirilgan o‘yin bolani ijodning xar xil turlarida o‘z o‘zini namoyon qilish va o‘zini ko‘rsatishiga, guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga, hayotiy tajribasini oshirishiga xizmat qiladi.

Demak, teatrlashtirilgan faoliyat - bolaga ta‘sir ko‘rsatishning eng samarali usullaridan biri hisoblanib, unda ta‘lim tamoillari ancha yorqin namoyon bo‘ladi: o‘ynab o‘rgatish! Teatrlashtirilgan faoliyat o‘z ichiga ikkita asosiy blok bo‘yicha ishlarni qamrab oladi: teatr alifbosi va teatrlashtirilgan o‘yinli faoliyat (qo‘g‘irchoq teatridagi o‘yinlar, dramatisatsiyali o‘yinlar, o‘yin-spektalllar, teatr uchun yasaymiz). Teatrlashtirilgan faoliyat jarayonida bolalarning atrof -olam haqidagi bilim va tasavvurlari kengayadi. Psixik jarayonlar: diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, idrok va fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Turli analizatorlarning rivojlanishi kuzatiladi. Lug‘ati faollashtiriladi, nutqning grammatik qurilishi, tovushlar talaffuzi, bog‘langan nutq ko‘nikmalari, nutqning temp, ritm, ohangdorligi, ifodaliligi takomillashtiriladi. Harkatlarning motorikasi, koordinatsiyasi, ravonligi, biridan ikkinchisiga o‘tish, maqsadga qaratilishi rivojlantiriladi, takomillashtiriladi. Hissiy irodaviy sohasi rivojlantiriladi. Hulq - atvor xususiyatlari tuzatiladi. Jamoa bilan ishlash, bir biri uchun javobgarlikni his qilish rivojlantiriladi, ahloqiy sifatlar shakllantiriladi. Ijodiy, topqirlik, mustaqillikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi teatrlashtirilgan faoliyatdan foydalanish maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning ham samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarurligini asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Uzbekiston Failsuflar Milliy Jamiyati Nashriyoti,-T.: 2007 yil.
2. Гончарова, Н. Театрализованные игры в коррекции заикания // Дошкольное воспитание. - 1998. - №3. С.82-85.
3. Волкова Г.А. Игровая деятельность в устранении заикания у дошкольников: Книга для логопедов. — 2-е изд., доп. и перераб. – СПб: Детство–Пресс, 2003. – 240 с.
4. Волкова Г.А. Коррекционная работа с заикающимися детьми дошкольного возраста по системе игр // Педагогические пути устранения речевых нарушений у детей. - Л., 1976. - С. 26 - 58.
5. Селиверстов В.И. Заикание у детей: Психокоррекционные и дидактические основы логопедического воздействия: Учебное пособие. - М.: ВЛАДОС, 2000. - 208с.

Global
Science
Publication